



UDK: 413.162:004=20(021)

Shahlo NARALIYEVA,
Tadqiqotchi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: shnaraliyeva@gmail.com

Qarshi DU professori, f.f.d N.Yuldosheva taqrizi asosida

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA “DISKURS” TUSHUNCHASINING NAZARIY MUAMMOLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada antropotsentrik tilshunoslik paradigmasining yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvoekologiya va uning taraqqiyoti xususida so'z boradi. Diskursda millatning, jamiyatning mentaliteti va madaniyati, shuningdek individning shaxsiy madaniyati aks ettirilgan. Shuningdek, lingvoekologik yondashuvda tillar sofligi “ekologiklik” nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. **Kalit so'zlar:** Antropotsentrik paradigma, lingvoekologiya, til sofligi, til muhofazasi, til muhiti.

THEORETICAL ISSUES OF THE CONCEPT OF “DISCOURSE” IN MODERN LINGUISTICS

Annotation

This article discusses linguoecology, one of the new directions of the anthropocentric paradigm in linguistics, and its development. The mentality and culture of a nation and society, as well as the individual culture of a person, are reflected in discourse. In addition, within the linguoecological approach, the purity of languages is analyzed from the perspective of “ecologicality”.

Key words: Anthropocentric paradigm, linguoecology, language purity, language protection, language environment.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПОНЯТИЯ «ДИСКУРС» В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается лингвоэкология как одно из новых направлений антропоцентрической парадигмы в языкознании, а также особенности её развития. В дискурсе отражаются менталитет и культура нации и общества, а также индивидуальная культура личности. Кроме того, в рамках лингвоэкологического подхода чистота языков анализируется с точки зрения их «экологичности».

Ключевые слова: Антропоцентрическая парадигма, лингвоэкология, чистота языка, охрана языка, языковая среда.

Kirish. “Diskurs” – bu nutqiy oqim, doimiy harakatdagi til bo'lib, u o'ziga tarixiy davrning barcha xilma-xilliklarini, kommunikantning individual va ijtimoiy xususiyatlarini, shuningdek muloqot kechayotgan kommunikativ vaziyat xususiyatlarini singdiradi. Diskursda millatning, jamiyatning mentaliteti va madaniyati, shuningdek individning shaxsiy madaniyati aks etadi.

Diskursiv faoliyat aniq ifodalangan ixtisoslashgan xususiyatga ega, ya'ni u o'z namoyon bo'ladigan “muhit” maishiy, ilmiy, kasbiy va boshqa jarayonlar ko'rsatilmasdan tasvirlab bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, diskurs maxsus ijtimoiy kontekst doirasida kechadi. “Diskurs – bu tilning o'ziga xos qo'llanish shakli” bo'lib, diskurs tahlili bu til qo'llanilishining tahlilidir.

Diskurs – kommunikativ voqea sifatida real vaqt davomida, onlayn ravishda kechadi. Shu sababli vaqt omili va diskurs kechadigan vaqtga “bog'liqlik” uning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Diskurs” termini ilmiy adabiyotga birinchi bor amerikalik tadqiqotchi Z.Xarrisning 1952-yilda chop etilgan “Diskurs tahlili” nomli maqolasi orqali kirib kelgan.

Muallif mazkur maqolada matnni tilning qaysi birliklari bilan belgilash mumkinligi haqida savol qo'yadi va matn sintaksisdan ham yuqori darajadagi tuzilishga mansubligini ilgari suradi. Xarrisning fikricha, diskurs tahlili gap doirasidan tashqariga chiqib, tilning yirik strukturalarini o'rganishni nazarda tutadi. Uning nutqqa bergan ta'rifi ham ana shu yondashuvga mos: nutq ma'lum vaziyatda bir yoki bir necha shaxs tomonidan og'zaki yoki yozma shaklda yaratilgan izchil bayonlar ketma-ketligidir.

V.E. Chernyavskaya diskursni matndan ajratib bo'lmaydigan, situatsion kontekstga mustahkam bog'langan lingvistik hodisa sifatida talqin qiladi.

“Diskurs” atamasini talqin qilishda doimo uning “matn” tushunchasi bilan munosabati haqida savol tug'iladi. Hozirgi lingvistikada “matn – diskurs” masalasiga uch xil yondashuv mavjud: bu ikki tushunchaning to'liq tenglashtirilishi; ularni “statik obyekt” (matn) va “dinamik jarayon” (diskurs) sifatida keskin farqlash; yoki matnni diskursning tarkibiy qismi sifatida qarash.

O'zbek tilshunosligida diskurs masalasi bo'yicha ilk maxsus tadqiqotlar Sh.Safarov tomonidan olib borilgan. Olim matn va diskurs munosabatiga to'xtalib, quyidagilarni qayd etadi: agar matn ham, diskurs ham insonning lisoniy faoliyati mahsuli bo'lsa, ularni faqat tashqi ko'rinishi – “og'zaki” yoki “yozma”ligi asosida farqlash to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, matnni moddiy shaklga ega hodisa, diskursni esa bunday shakldan xoli jarayon sifatida tasavvur qilish ham qiyin. Chunki lisoniy faoliyat natijasining o'zi moddiy ko'rinishga ega bo'lishi tabiiydir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunos olim A.Pardaevning ta'kidlashicha, diskurs – bu so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish maqsadida lisoniy hamda nolisoniy vositalardan ular eng samarali deb bilgan shakl va ko'rinishlarda foydalanish jarayonidir. Ya'ni diskurs – bu jarayon, inson faoliyatining bir turi bo'lib, u til vositalari hamda ko'plab ekstralingvistik omillarning yagona maqsad yo'lida uyg'unlashuvi orqali yuzaga chiqadi.

Maxsus sohada faoliyatni egallash jarayonida ilmiy diskurs shakllanadi, shuning uchun professional til shaxsiyati

deyarli butun diskurslar kontinuumi yoki ierarxiyasini egallaydi: nazariy, amaliy, professional va ilmiy diskurslar.

Diskurs turi quyidagi parametrlarning darajasi bilan belgilanadi:

– diskurs vaziyatining tabiati, ya'ni ma'lum bir maxsus/professional sohada faoliyat;

– diskurs ishtirokchilarining maxsus ta'limi;

– terminlarning ma'nosini egallash;

Diskurs tushunchasiga yaqin bo'lgan atamalardan biri dialog tushunchasidir. Har qanday kommunikativ akt singari, diskurs ham ikki asosiy rolning mavjudligini nazarda tutadi: so'zlovchi (muallif) va adresat.

Shu bilan birga, diskurs davomida so'zlovchi va adresat rollari ishtirokchilar o'rtasida navbatma-navbat almashinib turishi mumkin bunday holatda bu jarayon dialog deb ataladi.

Agar diskurs (yoki uning katta qismi) davomida so'zlovchi roli bir xil shaxsga mansub bo'lsa, bunday diskurs monolog deb ataladi.

Shuni xulosa qilish mumkinki, zamonaviy lingvistik talqinida "diskurs" terminini mazmunan "matn" tushunchasiga yaqin bo'lsa-da, u til orqali muloqotning vaqt davomida rivojlanib boruvchi, dinamik jarayon ekanini alohida ta'kidlaydi; buning aksiga, matn esa, asosan, statik obyekt, ya'ni til faoliyatining yakuniy mahsuli sifatida tasavvur qilinadi. Diskurs – bu nutqiy-tafakkur jarayoni bo'lib, u quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

– bir-biri bilan bog'langan bir nechta matnlar majmuasi orqali;

– bu matnlarni yaratish va tushinishda qo'llaniladigan umumiy kognitiv strategiyalar orqali;

– mazkur strategiyalarga mos keluvchi ichki tuzilishga ega bo'lgan shakllar orqali;

– ma'no yaratish, uzatish va boshqa matnlarni dekodlash jarayoniga xizmat qilishi orqali.

Diskurs insonning kundalik hayotiy amaliyotining muhim shakli sifatida murakkab kommunikativ hodisadir. U bog'liq matnlar yaratilishi orqali amalga oshadi va matnning o'zi bilan birga uni tushunish uchun zarur bo'lgan ekstralingvistik omillarni dunyo haqidagi bilimlar, fikrlar, munosabatlar, adresatning maqsadlarini o'z ichiga oladi.

M. Xallidey taklif qilgan modelga ko'ra, diskurs "ishtirokchilar", "mavzu" va "usul" kabi parametrlar orqali tavsiflanadi. Diskurs mavzusi deb ishtirokchilar tildan asosiy hamkorlik vositasi sifatida foydalanadigan ijtimoiy faoliyat sohasi nazarda tutiladi. Diskurs ishtirokchilari esa ularning ijtimoiy rollari, maqomi va o'zaro munosabatlari bilan birgalikda qaraladi.

Diskursning "usuli" deganda til orqali belgilangan maqsadga erishishda bajariladigan kommunikativ funktsiya, matnning shakl va mazmun jihatdan tashkil etilishi, uning namoyon bo'lish yo'llari (ogzaki yoki yozma), shuningdek, uning asosiy kommunikativ niyati tushuntirish, ishonitirish, rag'batlantirish kabi vazifalar nazarda tutiladi.

Tahlil va natijalar. Diskurs turlarini tahlil qilgan holda, E.F. Kirov shunday yozadi: "Diskursning turlari inson faoliyati turlariga teng, chunki har bir faoliyat turi o'ziga xos leksika va uslubiyat bilan ajralib turadigan diskurs turini yuzaga keltiradi". Ilmiy adabiyotlarda mavzu parametri bo'yicha eng ko'p uchraydigan diskurs turlari qatoriga pedagogik, axloqiy, siyosiy, huquqiy, tibbiy, harbiy, diniy, sportga oid va boshqa turlar kiradi. Diskurs mavzusi inson faoliyatining istalgan sohasiga tegishli bo'lishi mumkinligi sababli, bu ro'yxat juda keng va doimiy ravishda kengayib boradi.

M. Halliday, V.I. Karasik va V.V. Krasnyx tomonidan taklif qilingan diskurs tipologiyasi mezonlariga tayangan holda, tadqiqotchi E.V. Ivanova ilmiy tadqiqot doirasida ekologik diskursni ajratib ko'rsatadi. U ekologik diskursni shunday

ta'riflaydi: "turli funksional uslublar va janrlarga mansub matnlar to'plami monografiyalardan tortib ommabop va badiiy adabiyot asarlarigacha bu matnlarda til orqali ekologik mavzular va muammolar ifodalanadi".

Ekologik diskursni tahlil qilishda og'zaki yoki yozma matnlar ishlatiladi, ularning yaratilishi ekologik mavzularda muloqot vaziyatiga bog'liq bo'ladi. Ekologik diskursning asosiy tushunchalari va mavzusi – tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilishdir.

Jamiyat hayotida ekologiyaning ahamiyati oshishi bilan ekologik diskursning roli ham ortadi. Shu bilan birga, yangi tilshunoslik sohasi – ekolingvistika yuzaga keladi. Bu yo'nalish XX asrning 70-yillarida G'arbda shakllangan bo'lib, ekologiya va tilshunoslikni birlashtiradi. Ekolingvistikaning obyekti sifatida ekologik diskurs o'rganiladi.

Ekologik diskurs – bu ekologik mavzularda muloqotni shakllantiruvchi og'zaki va yozma matnlar to'plami bo'lib, u ekolingvistikaning tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Insonning madaniy evolyutsiyasi inson va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarda tub o'zgarishlarga olib keldi. Inson atrof-muhitga moslashish o'rniga uni o'z ehtiyojlariga muvofiq o'zgartirishga harakat qila boshladi. Vaqt o'tishi bilan u texnika yordamida tabiatga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatish va uni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu tariqa, tabiiy olam inson manfaatlariga muvofiq shakllanishga boshladi.

Sanoat rivojlangan mamlakatlarda 30 yildan ortiq vaqt oldin atrof-muhit muammolari haqida jiddiy gapira boshlashdi. Shu muammolar bilan bog'liq turli fanlarda alohida subdisiplinlar paydo bo'ldi: ekologik huquq, psixoeкологиya, media-ekologiya, ekologik tibbiyot, ekologik psixologiya, ekologik iqtisodiyot va boshqalar. XX asrning 70-yillarida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha keng ekologik harakatlar boshlanganidan so'ng, tilning tabiat va madaniyat muammolarini yoritishdagi roli yangi darajaga ko'tarildi.

Antropotsentrizm nuqtayi nazaridan, barqaror rivojlanish jamiyatning ehtiyoj va vazifalarini qondirish uchun tabiiy hayotiy asoslarni saqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, tabiat resurs va ishlab chiqarish funksiyasini bajaradi va "tabiiy boylik" sifatida qaraladi. Biroq ekolingvistlar biotsentrik yoki ekotsentrik yondashuv tarafdorlari bo'lib, u tabiiy muhitning o'z-o'ziga bo'lgan qiymatini va uning alohida huquqlarini tan olishga asoslanadi. Ekolingvistlarning fikricha, barcha tirik mavjudotlar o'z tabiiy rivojlanish yo'llariga teng huquqqa ega.

D.V. Yefremenko tadqiqotida shunday ta'kidlaydi: "Antropotsentrizm va ekotsentrizm o'rtasidagi raqobat nafaqat inson va tabiat munosabatlarining falsafiy jihatlarini bo'yicha, balki iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlarni konseptualizatsiya qilish nuqtayi nazaridan ham diskussiyalarni belgilaydi. Shu jarayon ekologik diskursning shakllanishi uchun asos bo'ladi".

Ekolingvistika – tilshunoslikning yangi ilmiy yo'nalishi bo'lib, til, inson (til shaxsiyati sifatida) va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganadi. Bu yerda til inson (jamiyat) va tabiat o'rtasidagi munosabat tizimining ajralmas komponenti hisoblanadi. Tilning rivojlanishi va ishlashi ekosistema kabi, atrof-muhit esa til konsepti sifatida tasavvur qilinadi.

Ekologik diskurs – bu o'ziga xos ijtimoiy muloqot ko'rinishi bo'lib, unda ma'lum tarixiy va madaniy sharoitda shakllanadigan insonning nutqiy-fikriy faoliyati asosiy o'rin tutadi. Ushbu diskursning markaziy konsepti atrof-muhit holati va uni muhofaza qilish masalalaridir. Har qanday diskurs kabi, "ekologik diskurs ham maydonli tuzilishga ega". Diskurs markazida uning asosiy maqsadlariga xizmat qiluvchi janrlar joylashadi. Shu sababli, ekologik diskursning yadro qismini ilmiy diskurs tashkil qiladi, chunki u diskursning maqsadlari, qadriyatlarini va ijtimoiy funksiyalariga eng mos keladi,

shuningdek, ushbu diskursning boshqa turlaridagi matnlar bilan eng ko'p bog'liqlikka ega. Yadroda ekologik diskursning asosiy funksiyasi va xususiyati boshqa diskurs turlari funksiyalari bilan birlashadi. Shuning uchun periferiya media diskurs janrlari hisoblanadi.

Ekologik diskursni o'rganishda material tanlash bo'yicha ikki yondashuv mavjud: tor va keng.

1. Tor yondashuvda tadqiqot manbai sifatida faqat to'g'ridan-to'g'ri ekologlar tomonidan yaratilgan matnlar ishlatiladi. Bu matnlar odatda institutsional xarakterga ega va muayyan o'ziga xoslikka ega.

2. Keng yondashuvda ekologik kommunikatsiyani o'rganish uchun manbalar sifatida faqat ekologlar tomonidan yaratilgan matnlar emas, balki turli ekologik muammolar bilan bog'liq boshqa matnlar ham ishlatiladi.

Ekologiyaga oid muloqot tizimida qo'llanadigan matnlar o'ziga xos vazifaga ega bo'lib, turli kommunikativ va nutqiy sohalarga xos matn tuzilmalarini ilmiy, publisistik, badiiy, rasmiy-ish yuritish va hatto kundalik muloqot sohalariga tegishli elementlarni birlashtirib turadi. Shu jihatdan ekologik diskurs tarkibida o'zining nutqiy janrlar jamlanmasiga ega quyidagi so'zlashuv yo'nalishlarini (subdiskurslarni) ajratish mumkin;

1. Ilmiy subdiskurs – professional ekologlar tomonidan yaratilgan matnlar: ilmiy maqolalar, tadqiqot ishlari, tezislari, monografiyalari, dissertatsiyalar, ilmiy sharh va tafsilotlar, annotatsiyalar, ma'ruzalar, leksiyalar, referatlar, qo'llanmalar, darsliklar va boshqalar.

2. Mediyaviy (mass-media) subdiskursi – asosan jurnalistlar tomonidan yaratilib, matbuot, televideniye, radio va internet orqali tarqatiladigan materiallar: qisqa axborot xabari, mavzuli maqolalar, reportajlar, intervyular, ocherk va esseler, murojaatlar, dasturlar, reklama plakatlar, shiorlar va shu kabilar.

3. Yuridik subdiskurs – ekologik sohadagi qonunlar, ma'muriy va hukumat qarorlari, direktivalar, farmoyishlar, nizomlar, instruktsiyalar, shuningdek xalqaro shartnomalar va konvensiyalar kabi huquqiy hujjatlar.

4. Badiiy subdiskurs – badiiy adabiyot doirasida yaratilgan asarlar: ekologik roman, hikoya, yumoristik lavhalar va boshqa xudojestvennyy namunalari.

5. Maishiy subdiskurs – ekologik masalalarga oid kundalik muloqot: siyosatchilarga yozilgan xatlar, OAVga yo'llangan murojaatlar, maishiy suhbatlar va boshqalar.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, real muloqot jarayonida har doim ham konvensional vaziyatlar kuzatilmaydi. Shu bois ekologik diskursning mazkur turlari to'liq yopiq tizim emas, yangi kommunikativ sharoitlar paydo bo'lishi bilan uning yangidan-yangi ko'rinishlari ham yuzaga kelishi mumkin.

Boshqa diskurs turlari kabi, ekologik diskurs ham semantik maydon tuzilishga ega. Maydon yadrosi elementlariga qanchalik yaqin yoki uzoq ekanligi, asosiy maqsad atrof-muhit holati haqida axborot berish va uni himoya qilish darajasiga bog'liq. Maydon yadrosiga ilmiy subdiskurs kiradi, chunki u ekologik diskursning maqsadlari, qadriyatlar va ijtimoiy funksiyalariga mos keladi hamda boshqa diskurs turlariga oid matnlar bilan eng ko'p bog'lanishlarga ega. Yadroga yaqin masofani ommaviy axborot vositalari va huquqiy subdiskurslar, uzoq masofani esa badiiy subdiskurs tashkil qiladi. Maydonning periferiyasida esa maishiy subdiskurs joylashgan.

Xulosa va takliflar. Ekologik diskurs yadrosini ilmiy subdiskurs tashkil etsa, uning yaqin periferiyasini esa ommaviy axborot vositalari subdiskursi egallaydi, bizning tadqiqotimizda aynan shu subdiskurs matnlarini batafsil o'rganishga e'tibor qaratamiz. Ajratilgan subdiskurs matnlarida ekologik diskursning asosiy vazifasi va xususiyatlari boshqa diskurs turlarining, xususan ilmiy va ommaviy axborot diskurslarining funksiyalari bilan chambarchas bog'langan.

ADABIYOTLAR

1. Азначеева, Е. Н. К проблеме когнитивного моделирования институционального дискурса // Слово, высказывание, текст в когнитивном, прагматическом и культурологическом аспектах: Тез. III Междунар. науч. конф. / под ред. Л. А. Нефёдовой. – Челябинск, 2006. – С. 83-84.
2. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов / – М.: Филол. ф-т МГУ им. М.В.Ломоносова.
3. И.Б. Руберт, С.В. Киселёва Когнитивные механизмы метафтонимии // Когнитивные исследования языка. – 2019. №36. С. 419-426.
4. Сафаров Ш.Этнокультурные компоненты дискурсивной деятельности // Язык, Дискурс и Личность. - Тверь, 1990, – С. 105-111.
5. Halliday, M. A. K. New Ways of Meaning: The Challenge to Applied Linguistics // The Ecological Reader: Language, Ecology and Environment / Edited by A. Fill, P. Mühlhäusler. – London, New York: Continuum, 2001. – P.56.
6. Киров Е. Ф., 2009. Начала концептуально-дискурсивной лингвистики // Система языка и языковое мышление / отв. ред. Е. Ф. Киров. М.
7. Иванова, Е. В. Метафора в экологическом дискурсе // Жанры и типы текста в научном и медийном дискурсе: межвуз. сб. науч. тр. / под. ред. А. Г. Пастухова. – Орёл: ОГИИК, 2006. – Вып. 4. – С. 70-76.
8. Зайцева, А. В. Типология текстов экологического дискурса ФРГ: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Смоленск, 2015. – с. 25.